



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 254-261 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTLARINING PAYDO BO'lishi VA ULARNI HISOBOTLARDA AKS ETTIRILISHI



Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi,
Farg'ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti,
e-mail: d.razzoqova@ferpi.uz

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining yangi obyektlari paydo bo'lmoqda, ularni hisobotlarda to'g'ri aks ettirish zarur. Mazkur masala dolzarb hisoblanadi, shundan kelib chiqib tadqiqot aynan zamonaviy texnologiyalar va biznes modellarining jadal rivojlanishi tufayli sodir bo'layotgan buxgalteriya hisobidagi o'zgarishlarni o'rganishga bag'ishlangan. Yangi buxgalteriya hisobi obyektlarning paydo bo'lishi an'anaviy hisob tizimlaridan farq qilishi mumkin, shuning uchun ularni to'g'ri baholash, hisoblash va buxgalteriya hisobotida taqdim etish borasida yangi yondashuvlarini ishlab chiqish muhimdir.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy hisobotlar, hisob obyektlari, kriptovalyutalar, nomoddiy aktivlar, innovatsion yechimlar, raqamlashtirish texnologiyalari.

Аннотация. В условиях цифровой экономики появляются новые объекты бухгалтерского учета, которые необходимо правильно отражать в отчетности. Данный вопрос является актуальным, исходя из этого исследование посвящено изучению изменений в бухгалтерском учете, происходящих именно в связи с бурным развитием современных технологий и бизнес-моделей. Появление новых объектов бухгалтерского учета может отличаться от традиционных систем учета, поэтому важно разработать новые подходы к их правильной оценке, расчету и представлению в бухгалтерской отчетности.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, цифровая экономика, финансовая отчетность, объекты учета, криптовалюты, нематериальные активы, инновационные решения, технологии цифровизации.

Abstract. In the context of the digital economy, new objects of accounting are emerging, which must be correctly reflected in reports. This issue is relevant, therefore the research is devoted to the study of changes in accounting that are occurring precisely due to the rapid development of modern technologies and business models. The emergence of new accounting objects may differ from traditional accounting systems, therefore it is important to develop new approaches to their correct assessment, calculation, and presentation in accounting.

Keywords: accounting, digital economy, financial reporting, accounting objects, cryptocurrencies, intangible assets, innovative solutions, digitalization technologies.

Kirish qismi. Zamonaviy dunyoda har bir ma'lumot yoki axborot jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishiga qaratilgan asosiy yo'nalishlaridan

biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlar umuminsoniy qadriyatlar, qiymat yaratishning moddiy omillaridan voz kechish hamda biznes modellari va ekotizimlarni qo'llab-quvvatlovchi axborot muhitining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir. Axborot almashuvining jadallashishi jamiyatda yangi konsepsiyaning paydo bo'lishi ya'ni raqamli iqtisodiyotni shakllanishi, taraqqiy etishiga olib keldi.

Jumladan, O'zbekistonda ham ushbu yo'nalish barcha sohalarning eng muhim rivojlanish tendensiyalardan biri sifatida qaralmoqda, "Raqamli O'zbekiston – 2030" [1], "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [2], "O'zbekiston – 2030" [3] strategiyasi va boshqa yana ko'plab tegishli huquqiy normativlarni hukumat tomonidan qabul qilinishi milliy iqtisodiyotimizning raqamli transformatsiyasini ta'minlovchi va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjat raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu esa milliy ustuvorliklarni ro'yobga chiqarish va global iqtisodiy ekotizimda faol ishtirok etishga ko'maklashadi.

Albatta ushbu o'zgarishlar an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni axborot bilan ta'minlash tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizga yaxshi ma'lumki buxgalteriya hisobi tarixan barcha iqtisodiy axborotlarning manbai hisoblangan, uning asosiy vazifasi korxonalar faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy axborotlarni to'plash, qayta ishlash va taqdim etishdan iborat bo'lgan.

Zamonaviy texnik va texnologik taraqqiyot davrida axborot iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun asosiy aktivga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy muhit tez va tubdan o'zgarayotgan sharoitda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Buxgalteriya hisobi ham moliyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida turli omillar ta'sirida o'zgarib boradi. So'nggi paytlarda ekspertlar ushbu sohada muammolar yuzaga kelayotgani, shuningdek, moliyaviy hisobotning manfaatdor tomonlar uchun ahamiyati pasayib borayotganini ta'kidlamoqda.

Shu munosabat bilan axborot, shu jumladan raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining roli va o'rini qayta ko'rib chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda. Raqamlashtirish texnologiyalari va axborot mazmuniga qo'yiladigan yangi talablar ta'sirida buxgalteriya hisobining mazmuni, uslubiyoti va konsepsiyalari qanday o'zgarayotganligini o'rganish zarur.

So'nggi yillarda bu sohadagi tadqiqotlar ayniqsa talabgir bo'lib bormoqda. Buning sababi shundaki, hisob tizimida muammolar paydo bo'la boshladi: uning funksiyalari kamroq samarali bo'lib qoldi va hisobotlardagi ma'lumotlar ba'zi foydalanuvchilar uchun kamroq qadrlil bo'lib qoldi.

Shu munosabat bilan ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi. Nazariy darajada olimlar hisob nazariyasi asoslari, konsepsiyalari va yondashuvlarini qayta ko'rib chiqadilar, uning iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun axborot muhitini shakllantirishdagi rolini tahlil qiladilar. Amaliy darajada ular hisobni yaxshilash va uning foydalanuvchilar uchun ahamiyatini oshirish yo'llarini izlaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda ham, undan tashqarida ham buxgalteriya hisobi sohasidagi mutaxassislar, ayniqsa raqamlashtirish sharoitida, ushbu sohani o'zgartirish masalalarini faol muhokama

qilmoqdalar. Ko'pchilik mutaxassislar hisobni nazariy, uslubiy va amaliy darajalarda rivojlantirish zarur deb hisoblaydilar. Ular hisob ma'lumotlari tarkibini zamonaviy iqtisodiy muhitda foydalanuvchilar uchun foydali bo'lgan ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan holda kengaytirishni taklif qilmoqdalar. Buni amalga oshirish uchun buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, soliq hisobi va bu sohada zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha chuqur bilim va tajribalari zarurdir.

Fikrimizcha bunda biz raqamli iqtisodiyot tushunchasini yaxshi tushunishimiz kerak, bu borada sohasidagi O'zbekistonning taniqli mutaxassislari va ularning izlanishlari bizga o'z bilim, ko'nikmalarimizni rivojlantirishga chuqurlashtirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot yangi, ammo ahamiyatli hodisa bo'lib, turli talqinlarda o'z aksini topadi. Quyida ulardan ba'zilarini keltiramiz:

1. Raqamli iqtisod - xo'jalik yuritishning yangi zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy xo'jalik yuritish shakllriga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida maxsulot yetishtirishni va uni yetkasib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin [4].

2. Raqamli iqtisodiyot – internet orqali, elektron tijorat orqali tovarlar va xizmatlar savdosiga imkon beradi va uni amalga oshiradi. Raqamli iqtisodiyot uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: infratuzilma (qurilmalar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va boshqalar), elektron biznes (raqamli jarayonlar, tashkilotlarda) va elektron tijorat (tovarlarni onlayn sotish) [5].

3. Raqamli iqtisodiyot – bu xo'jalik faoliyati, bunda ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlarni ishlab chiqarish, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish bo'lib, ular an'anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan har xil turdagi mahsulotlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, saqlash, sotish, etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [6].

4. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, ammo ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyot Internet va Butunjahon internet tarmoqlariga asoslangan bozorlarda biznes operatsiyalarini amalga oshirishini tushunamiz [7-9].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki raqamli iqtisodiyot ko'plab afzalliklari egadir, misol uchun raqamli iqtisodiyot xarajatlarni optimallashtirish va foydani oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Onlayn muhitda reklama xarajatlarining kamayishi tufayli xizmatlar narxi an'anaviy dunyoga qaraganda jozibadorroq bo'ladi.

Raqamli makonda tovarlar va xizmatlar tezda xalqaro bozorga chiqishi va butun dunyo bo'ylab odamlar uchun mavjud bo'lishi mumkin. Mahsulot iste'molchilarning yangi talablari va umidlariga javob berish uchun deyarli bir zumda moslashtirilishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot axborot, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va ko'ngilochar tadbirlarga kengroq kirish imkonini beradi — bularning barchasi tezroq, sifatliroq va arzonroq narxda mavjud.

Shu bilan birgalikda aynan buxgalteriya hisobi sohasida ham raqamli iqtisodiyot ko'plab imkoniyatlar yaratadi, o'zbek mutaxassislarning ilmiy izlanishlari, asarlari yurtimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Ular o'z faoliyatida buxgalteriya hisobi, moliyaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot sohasidagi dolzarb tendensiyalarni hisobga olgan holda moslashtirilgan yangicha usullarni o'z ichiga oladi hamda ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlardan foydalanadilar.

Shuningdek O'zbekistondagi buxgalteriya sohasidagi yangi tendensiyalarga xorijiy olimlarning ham ilmiy izlanishlari o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, ushbu yo'nalishdagi ilmiy faoliyat va izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki taniqli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan turli xil yondashuvlar, tushunchalar va hisob nazariyalarining ham o'zgarishiga olib keldi. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Pankov V. V., Juk V. N., Chaykovskoy L. A. va Polenov S. N. tomonidan taklif etilgan hisobning institutsional nazariyasi [10-11];
- Shcheglova T. L. tomonidan ishlab chiqilgan integratsiyalashgan hisob [12];
- Tkach V. I. va Shumeyko M. V. tomonidan ishlab chiqilgan hisobga olishning muhandislik nazariyasi [13];
- Devayn K., Birnberg D., Shield M., Rojnova O. V., Kamorjanova N. A. tomonidan taklif etilgan buxgalteriya hisobi konsepsiyasi [14].

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sharoitida buxgalteriya hisobi axborot ta'minotining asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Ilmiy doiralarda yangi iqtisodiyotni tushunishga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular raqamli, postindustrial, axborot, kognitiv, bilimlar, xizmatlar iqtisodiyoti va boshqalar deb ham ataladi. Chunki har bir holatda zamonaviy iqtisodiy tizimning turli jihatlari ajratib ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot doirasida raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va uning infratuzilmasining uslubiy asoslarini shakllantirish taklif etiladi. Bu borada tadqiqotning nazariy asosi bo'lib kompleks tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodologiyalar hisoblanadi:

- empirik metodlar — kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, o'lchash va eksperiment;
- nazariy bilish metodlari: formallashtirish, aksiomatika, gipotezalar va ularni tekshirish, gipotetik-deduktiv metod, mavhumlikdan aniqlikka qarab borish;
- mantiqda qo'llaniladigan usullar: analiz va sintez, abstraksiya, umumlashtirish, ideallashtirish, induksiya va deduksiya, analogiya, modellashtirish, tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional usul, ehtimoliy-statistik usul, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Tahlil va natijalar.

So'nggi paytlarda buxgalteriya hisobi sohasidagi mutaxassislar buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish zarurligini faol muhokama qilmoqdalar.

Ko'pchilik mutaxassislar buxgalteriya hisobi tamoyillari, usullari va konsepsiyalarini, uning asoslarini qayta ko'rib chiqish zarur, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, hisobotni shakllantirishga ham mazmun va sifat jihatidan, ham uning tashqi ko'rinishi jihatidan yondashuvni o'zgartirish talab etiladi.

Buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari konservativlik, bilim va tajribaning cheklanganligi, eskirgan ma'lumotlar va o'ziga xos ish usullari va formatlaridan foydalanish, shuningdek, qoidalar va cheklovlarning ko'pligi kabi omillar tufayli uning salohiyati sezilarli darajada kamayadi.


Hamma narsa raqamli texnologiyalar bilan to'lib-toshgan davrda buxgalteriya hisobi bir qator muammolarga duch kelmoqda. U iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi asosiy axborot manbai sifatidagi rolini yo'qotish xavfi tug'iladi. U murakkab elektron tizimlarning bir qismi bo'lib qolishi mumkin. Buxgalter kasbi o'ziga xosligini yo'qotishi va buxgalter keng ko'lamli vazifalarni bajarishga qodir bo'lmagan va har doim ham talab qilinmaydigan oddiy ro'yxatga oluvchiga aylanishi mumkin.

Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi buxgalteriya hisobi obyektlarining paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi, bu o'z o'rnida ularni hisobotlarda aks ettirilishini talab etadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi metodologiyasining kompleks rivojlanishi buxgalteriya hisobi metodining o'zini ham, boshqaruv faoliyatining turdosh turlarini ham qamrab olishi mantiqiy va zaruriy qadamdir. Bu axborot mahsulotining mavjud va yangi vazifalarga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi.

Axborotlashgan jamiyat va raqamli iqtisodiyot sharoitida hisob obyektlari sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Bu, birinchi navbatda, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik xavfsizlik, biznesning ijtimoiy mas'uliyati, strategik yo'naltirilganlik, tizimlilik va korporativ boshqaruv sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar doirasining kengayishi bilan bog'liq. Shuningdek, tashkiliy, innovatsion, inson va obro'-e'tibor kapitali, shuningdek, qiymatni yaratish uchun asos bo'lgan boshqa nomoliyaviy aktivlar ham hisobga olinadi.

Quyidagi rasm orqali biz raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi buxgalteriya hisobi obyektlarining turlari keltirdik.



1-rasm. Yangi buxgalteriya hisobi obyektlari [15]

O‘z navbatida ushbu yangi buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olish va ular bo‘yicha hisob siyosatini tashkil etish, hisobotlarni shakllantirish masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida (IFRS/IAS) bo‘yicha kriptovalyutalar va virtual aktivlar “Moliyaviy Instrumentlar” (IFRS 9) yoki “Nomoddiy Aktivlar” (IAS 38) standartlariga muvofiq hisoblanadi.

US GAAP bo‘yicha kriptoaaktivlar “Intangible Assets” (ASC 350) yoki “Inventory” (ASC 330) sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BHMS) “Nomoddiy aktivlar” sifatida ushbu yangi buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olish amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki yangi buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olish masalalari doimiy o‘zgarishda hamda ularni takomillashtirish hali davom etmoqda. Misol uchun hozirgi vaqtda kriptovalyutalar bozori o‘zgarishlarning yuqori dinamikasi bilan ajralib turadi, bu esa buxgalteriya hisobi sohasida ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu borada aniq qoida va standartlarning mavjud emasligi kriptovalyutalarni baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonini qiyinlashtirmoqda.

Kriptovalyutalarning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishini ta’minlash uchun ularning huquqiy tabiatini aniqlash va ularni aktivlar sifatida tasniflash lozim.

Buxgalteriya hisobining mavjud amaliyoti aktivlarni aylanma va aylanmadan tashqari aktivlarga ajratishni ko‘zda tutadi. Aylanma aktivlar yuqori likvidligi va tez pul mablag‘lariga aylanish qobiliyati bilan ajralib turadi. Biroq, kriptovalyutalar ushbu mezonga javob bermaydi, chunki ular yuqori likvidlikka ega emas va qiymatning sezilarli tebranishlariga moyil.

Bundan tashqari, kriptovalyutalar jismoniy ko‘rinishga ega emas, bu ham ularni an’anaviy aktivlardan ajratib turadi. Kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobotida to‘g‘ri aks ettirish uchun ular bilan qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkinligini tushunish kerak. Kriptovalyutalar bilan mumkin bo‘lgan operatsiyalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Maxsus uskunalardan foydalangan holda kriptovalyuta yaratish.
2. Bir kriptovalyutani boshqasiga almashtirish.
3. Kriptovalyutani fiat pullarga almashtirish.
4. Tovarlar yoki xizmatlar uchun kriptovalyuta to‘lovi.

Kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun maxsus hisobvaraq — “Raqamli valyutaga qo‘yilmalar” ochish mumkin. Lekin hozirgi vaqtda u buxgalteriya hisobi amaliyotida qo‘llanilmaydi. Undan foydalanishni Moliya vazirligi bilan kelishish va u haqidagi ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi qoidalariga kiritish zarur.

Kriptovalyutani yaratish bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish uchun kriptovalyutaning qiymatini hisobdan chiqarish uchun 91.01 hisobvarag‘idan foydalanish mumkin. Agar kriptovalyuta daromad manbai sifatida qaralsa, operatsiyani quyidagicha aks ettirish mumkin:

- Kriptoalyuta saqlanadigan hisob raqamiga pul mablag'larining kelib tushishi.
- Kriptoalyuta operatsiyalaridan daromad olish.
- Olingan daromadni buxgalteriya hisobotida aks ettirish.

Shunday qilib raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi hisob obyektlari paydo bo'lmoqda, bu esa an'anaviy buxgalteriya hisobi va hisobot usullarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Bu borada xalqaro standartlar va qonunchilik talablariga javob beradigan innovatsion yechimlar yaratilmoqda.

Yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun kompaniyalar hisob siyosatini tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishlari kerak. Bu ularga raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat yuritishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""Raqamli O'zbekiston — 2030"" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"" gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida""gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""O'zbekiston — 2030"" strategiyasi to'g'risida"" gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>
4. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.
5. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.
6. Bo'rixadjayeva, M. S. (2023). BUGUNGI KUNDAGI JAHON MIQYOSIDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(8), 266-278.
7. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 107-112.
8. A.Taniyev. Blokcheyn va kriptoalyuta texnologiyasi.O'quv qo'llanma.– Samarqand: SamDU nashri, 2021 y.– 196 b.
9. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari: O'quv qo'llanma. A.A.Karimov va boshqalar. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 192 b.
10. Жердева Наталья Геннадьевна, & (2019). Институциональный подход в бухгалтерском учете. Вести научных достижений. Экономика и право, (1), 9-12.
11. Институциональные аспекты бухгалтерского учета и контроля [Текст] / В. В. Панков, Л. А. Чайковская, И. Н. Санникова [и др.]. - М.: РЭА им. Г. В. Плеханова, 2009. - 428 с.
12. Щеглова, Т. Л., & Ионин, В. Г. (2016). ИНТЕГРИРОВАННЫЙ УЧЕТ И ПОТРЕБНОСТИ СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА. In БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ И АУДИТ: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ (pp. 185-190).

13. Инжиниринговая теория бухгалтерского учета [Текст] : квалитетрический учебник / В. И. Ткач, М. В. Шумейко ; М-во образования и науки Российской Федерации, Федеральное гос. бюджетное образовательное учреждение высш. проф. образования "Ростовский гос. строит. ун-т". — Азов, Ростовская обл. : АзовПечать, 2013. — 459 с.

14. Концепция бухгалтерского учета в "новой" экономике [Текст] : монография / [Гришкина С. Н., Рожнова О. Н., Сиднева В. П. и др.] ; под редакцией Н. Н. Парасоцкой, К. А. Артамоновой, Г. И. Алексеевой ; Федеральное государственное образовательное бюджетное учреждение высшего образования "Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации", Кафедра "Бухгалтерский учет в коммерческих организациях". - Москва : Русайнс, 2015. - 262 с.

15. Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

